QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdamovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKILOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDI SOLIQQI TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJIRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MODELLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1330
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamonov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afarovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afrovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxamedova Yayra Atxamovna	



MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrası,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Email: ya.aliyev@tsue.uz

Tashmuxamedova Yayra Atxamovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrası
katta o'qituvchi, PhD.
Email: yayrusha@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz agrar bozori tarkibida faoliyat yuritayotgan agrolesurslar bozorining iqtisodiy xavfsizligini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan o'zaro munosabatlarni takomillashtirish masalalari nazariy hamda amaliy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: agrar bozor, agrolesurslar bozori, agro xizmatlar bozori, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori, intellektual mulk bozori, makroiqtisodiy muvozanat, tashqi va ichki munosabatlar, savdo va to'lov balansi, raqobat, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article theoretically and practically examines issues such as improving relationships that serve to enhance the economic security of the agro-resource market operating within the country's agricultural sector and ensure macroeconomic stability.

Key words: Agrarian market, market of agricultural resources, market of agricultural services, market of agricultural products, market of intellectual property, macroeconomic equilibrium, external and internal relations, trade and balance of payments, competition and competitiveness.

Аннотация. В данной статье теоретически и практически освещены вопросы совершенствования отношений, направленных на повышение экономической безопасности рынка агресурсов, функционирующего в составе аграрного рынка нашей страны, и обеспечение макроэкономической стабильности.

Ключевые слова: Аграрный рынок, рынок агресурсов, рынок агроуслуг, рынок сельскохозяйственной продукции, рынок интеллектуальной собственности, макроэкономическое равновесие, внешние и внутренние отношения, торговый и платежный баланс, конкуренция и конкурентоспособность.

KIRISH

Dunyo agrar bozorida yuzaga kelayotgan vaziyatlar shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning eksporti o'sish sur'atlari tabiiy-iqlim afzalliklariga ega bo'lgan mamlakatlarda kuzatilmoqda. Agrolesurslar bozori tarkibi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'tkazilayotgan



xalqaro ekspert tadqiqotlari jahon miqyosida va uning ayrim mintaqalarida ushbu masalaga oid murakkab vaziyat yuzaga kelganini ta'kidlamogda. Mutaxassislarning fikricha, "... hozirgi kunda jahon agrar va oziq-ovqat bozorlarida raqobat muhiti kundan-kunga kuchayib bormogda. Ayniqsa, ho'l va quruq mevalar, sabzavotlar, konservalangan mahsulotlar, qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari, o'simlik yog'i, un va un mahsulotlari, choy, kofe, sitrus mevalar, sut va go'sht mahsulotlari bozorlarida shunday holatni kuzatish mumkin. Bunda u yoki bu tovarga bo'lgan talab va sotuv hajmiga uning tashqi ko'rinishi, rangi, hajmi, chiroyli qadoqlanishi, ishlab chiqaruvchi korxonaning obro'-e'tibori, sotuvchining xatti-harakati va tovarni taklif eta olish qobiliyati, reklama hamda boshqa omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi" [1].

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligining rivojlanishi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash imkonini beruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, agrolesurslar va agroxiizmatlar bozorlarini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, intensiv bog'lar tashkil etish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga keng tatbiq etish, olim va mutaxassislarning fikr-mulohazalari hamda to'plangan tajribalar asosida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati mavjud. Shu bois, "tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish" ustuvor vazifa etib belgilangan [2].

Hozirda qishloq xo'jaligi mahsulotlari, agrolesurslar va agroxiizmatlar bozorlarini rivojlantirish tizimida mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurati paydo bo'lgan. Yuqoridagilarni hisobga olib, agrar sohada qishloq xo'jaligi mahsulotlari, agrolesurslar va agroxiizmatlar bozorlari faoliyatini kompleks ravishda, erkin bozor qonunlari doirasida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurati ushbu mavzuni tanlashga asos bo'lgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Makroiqtisodiy barqarorlik va agrolesurslar bozorining iqtisodiy xavfsizligi o'rtasidagi bog'liqlik masalasi ko'plab iqtisodchi va siyosiy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Christopher Béné o'zining 2021-yildagi "Food systems and food security" nomli tadqiqotida oziq-ovqat xavfsizligi darajasi ko'p hollarda milliy makroiqtisodiy siyosatning barqarorligiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inflyatsiya, valyuta kursi o'zgarishlari yoki global ta'minotdagi uzilishlar bevosita aholining oziq-ovqatga kirish imkoniyatini pasaytiradi.

Xuddi shu yo'nalishda Sheryl Savary o'zining 2022-yilgi "Revisiting Food Security" ishida oziq-ovqat tizimlari iqtisodiy shoklarga qanday javob berishini tahlil qilib, hukumatlar makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash orqali oziq-ovqat bozorida ishonchni mustahkamlashlari kerakligini ta'kidlaydi. U makrobarqarorlikni saqlovchi fiskal intizom, ijtimoiy himoya mexanizmlari va agrar ishlab chiqarishdagi diversifikatsiyani "uch tayanch" sifatida belgilaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi FAO ekspertlari o'zining "Price Volatility in Agricultural Markets" nomli tahliliy hisobotida agrar narxlarning keskin tebranishi oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solishini, bu jarayonni yumshatish uchun hukumatlar fiskal va monetar siyosatni koordinatsiya qilishi zarurligini qayd etadi. FAO yondashuvi bo'yicha davlat zaxiralari, narx monitoringi tizimi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari agrar bozorni himoya qiluvchi asosiy mexanizmlardir.

Nazariy asoslar nuqtayi nazaridan Christophe Gouel 2014-yilda "The Economics of Food Price Volatility" asarida narxlarni barqarorlashtirish siyosatining ikki tomonlama ta'sirini ko'rsatgan: qisqa muddatda u ijtimoiy barqarorlikni saqlaydi, ammo uzoq muddatda ishlab chiqaruvchilarning rag'batini pasaytiradi. Shu sababli, Gouel narxlar barqarorligini fiskal barqarorlik, ijtimoiy yordam va ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish bilan muvofiqlashtirishni taklif qiladi.

Filippinlik iqtisodchi M.J.M. Mariano o'zining 2014-yilgi tadqiqotida davlat tomonidan joriy etiladigan subsidiyalar va narx qopqoqlarining makroiqtisodiy oqibatlarini tahlil qilib, noto'g'ri yo'naltirilgan siyosat inflyatsiyani kuchaytirishi va budjet defitsitini oshirishi mumkinligini isbotlaydi. U samarali yo'l sifatida maqsadli subsidiyalar va ijtimoiy yordam dasturlari bilan birlashtirilgan bozor mexanizmlarini tavsiya etadi.

Yana bir zamonaviy yondashuvni Isaac Keubeng 2025-yilda o'tkazgan "Controlling Agricultural Product Price Volatility" nomli empirik tadqiqotida ilgari surgan. U agrar mahsulotlar narxining o'zgaruvchanligiga



ob-havo, valyuta kursi va global talab o'zgarishlari ta'sirini modellashtirib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun makroiqtisodiy signal tizimini joriy etish zarurligini ilgari suradi.

O'zbekiston kontekstida Jahon bankining "Price Volatility in Food and Agricultural Markets" (2023-yil) hisobotida milliy agrolesurslar bozorining barqarorligini oshirish uchun fiskal barqarorlik, ichki ishlab chiqarishni kengaytirish, logistika tizimini modernizatsiya qilish va fermerlarga kredit hamda sug'urta vositalarini yetkazish muhimligi ta'kidlangan. Shuningdek, Trade.gov tomonidan tayyorlangan "Uzbekistan – Agricultural Sectors" (2023-yil) tahlilida O'zbekistonning eksportga yo'naltirilgan agrar siyosati iqtisodiy xavfsizlikning markaziy elementi sifatida baholangan.

Umuman olganda, Béné, Savary, Gouel, Mariano va Keubenglarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, agrolesurslar bozorida iqtisodiy xavfsizlikni oshirish uchun makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, bozor mexanizmlarini soddalashtirish, maqsadli ijtimoiy siyosatni kuchaytirish va infratuzilmani diversifikatsiya qilish zarur. Bu yondashuvlar O'zbekiston sharoitida agrar sektorni rivojlantirish, inflyatsiyani jilovlash va ichki oziq-ovqat ta'minotini mustahkamlash uchun amaliy yo'nalish sifatida qo'llanishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlash jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstrakt-mantiqiy tahlil, korrelyatsiya hamda regressiya kabi statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy maqola natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular respublikamizda agrolesurslar bozori iqtisodiy xavfsizligini oshirish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan maqsadli strategiyalarni shakllantirishga o'z hissasini qo'shadi. Amaliy jihatdan esa agrolesurslar bozorini rivojlantirishni ta'minlash mezonlari va ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu tizimdan mazkur bozorni rivojlantirish hamda tarmoq OTMLarida tegishli fan yo'nalishlari bo'yicha ta'lim jarayonida qisman foydalanish mumkin. Bu, o'z navbatida, agrolesurslar bozorini rivojlantirishga qaratilgan turli tadbirlar ishlab chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Agrolesurslar bozorini rivojlantirish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator ilmiy natijalar olingan. Jumladan: agrar bozorni innovatsion rivojlantirish va investitsiyalarga bog'liqlik modellari ishlab chiqilgan (University of California, AQSH); qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida savdoni tashkil etishni tartibga solish tizimi takomillashtirilgan (Tufts University, AQSH); agrolesurslar bozorining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan (Boston University, AQSH); fermer xo'jaligi mahsulotlarini agrar bozorga keltirish, saqlash va sotish faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha takliflar berilgan (University of Adelaide, Avstraliya); qishloq xo'jaligiga agroxiizmatlar ko'rsatuvchi subyektlarni soliqqa tortish mexanizmidagi imtiyozlar jarayonlari o'rganilgan (University of Adelaide, Avstraliya); qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi korxonalarga subsidiyalar berish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari tahlil qilingan (Oxford University Press, Angliya); agrar sohadagi iqtisodiy kategoriyalar, moddiy-texnika resurslari hamda ularni baholash mexanizmlari yoritilgan (Rossiya Davlat Agrar Universiteti, Rossiya); qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ulgurji xarid qilish va ishlab chiqaruvchilar bilan fyuchers shartnomalarini tuzish bo'yicha tashkil etilgan savdo-xarid korxonalari ishini faollashtirish yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan (Belarus Davlat Qishloq Xo'jaligi Akademiyasi, Belarussiya).

Bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan sharoitda agrolesurslardan samarali hamda maqbul nisbatda foydalanishni ta'minlash uchun agrolesurslar bozori muvozanatiga erishish zarur. Bir qator iqtisodchi olimlar — Bonanno, Russo va Menapace — o'zlarining chop etilgan ilmiy maqolalarida "... agrolesurslar bozorini rivojlantirishda zamonaviy agrotekhnologiyadagi so'nggi o'zgarishlar va yangi innovatsion g'oyalarni hamda ularning holatini baholashda an'anaviy modellar bilan bir qatorda yangi uslublardan foydalanish zarur", — deb ta'kidlaydilar. Chunki bugungi kunda qishloq xo'jaligida agrolesurslar bozorini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilish mushkul [3].


Agrolesurslar o'z tarkibi jihatidan turli toifadagi resurslarni o'z ichiga oladi, biroq ularning umumiy jihati shundan iboratki, ular qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, tashish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan korxonalar tomonidan ishlab chiqarish jarayoniga jalb etiladi. Agrolesurslar tarkibini respublikamiz agrar tarmog'ida shakllanayotgan iqtisodiy munosabatlar doirasida quyidagicha ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan asosiy agroresurslarning tarkibi [4]

Agroresurslar tarkibiga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan yer va suv resurslari, qishloq xo'jaligi texnika va uskunalari, ishlab chiqarish binolari, mahsuldor hamda ishchi chorva mollari, sanoat korxonalarining asbob va uskunalari ko'rinishidagi asosiy ishlab chiqarish fondlari, o'rtaacha yillik vegetatsiya davri davomiyligi, samarali harorat miqdori, quyoshli kunlar uzunligi kabi tabiiy-iqlim omillari, yoqilg'i-moylash materiallari, mineral va organik o'g'itlar, urug'liklar, ehtiyot qismlar shaklidagi aylanma vositalar, shuningdek, turli moliyaviy institutlar, budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarning kredit hamda boshqa maqsadlarga yo'naltirilgan mablag'lari ko'rinishidagi moliyaviy resurslar kiradi.

Ayni paytda agroresurslar bozorlari o'ziga xos bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, aksariyat hollarda agroresurslar bozorlarda tovar ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) monopol mavqega ega holda faoliyat yuritadi. Biroq iste'molchilar (xaridorlar) sonining ko'pligi va ularning mahsulotning bozor narxiga ta'sir eta olmasligi ushbu bozorlarning asosiy farqli jihatlaridan biridir (2-rasm).



2-rasm. Agroresurslar bozorlarining umumiy tarkibiy tuzilishi [5]



Bu borada mamlakatimiz iqtisodchi olimi E. F. Trushinning fikrlariga qo'shilish mumkin. U o'zining ilmiy tadqiqotlarida: "... suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish uchun maqbul to'lovlarni ishlab chiqish va hisobga olish, suvdan samarali foydalanuvchi iste'molchilarni davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish lozim", — deb ta'kidlagan [6].

Hozirgi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish tizimini joriy etish hamda uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, suv resurslarini tejovchi yangi texnologiyalar joriy etilgan ekin maydonlariga ma'lum muddatga soliq imtiyozlari berilgan va boshqa rag'batlantiruvchi choralar ko'rilgan.

Agroresurslar bozorining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, ayrim resurslar inson tomonidan ishlab chiqarilmaydi (masalan, tabiiy-iqlim omillari) va ular hududiy miqyosda cheklangan xarakterga ega (yer va suv resurslari) (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi yerlarining toifalar bo'yicha taqsimoti (2023-yil holatiga) [7]

№	Yerning toifasi	Maydoni (ming ga)
1	Qishloq xo'jaligi yerlari	17 500
2	Aylanma yerlar	15 000
3	Qayta tiklanishga mo'ljallangan yerlar	2 500
4	O'rmon yerlari	2 000
5	Sug'oriladigan yerlar	1 000
6	Cho'l va sho'r yerlar	800

Ushbu jadval ma'lumotlari asosida 2023-yil holatiga O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi yerlarini toifalar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi yerlari 17 500 ming gektar, aylanma yerlar 15 000 ming gektar, o'rmon yerlari 2 000 ming gektar va boshqa toifalardan iborat. Agar ushbu yerlardan samarali foydalanish tizimli yo'lga qo'yilsa, bu o'z navbatida agroresurslar bozorining rivojlanishiga xizmat qiladi [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agroresurslar bozori, bizningcha, umumiy tarzda quyidagicha ta'riflanishi maqsadga muvofiq:

"Agroresurslar bozori" (ARB) — bu qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi subyektlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, tayyorlovchi, tashuvchi, saqlovchi va savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar bilan resurs yetkazib beruvchi tarmoqlar o'rtasida agrar tarmoq uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik va mehnat resurslarini ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash hamda iste'mol qilish jarayonlarida shakllanuvchi o'zaro iqtisodiy munosabatlar majmuasidir.

Agroresurslar tarkibiga qishloq xo'jaligidagi yer va suv resurslari, qishloq xo'jaligi texnikalari, ishlab chiqarish binolari, mahsuldor hamda ishchi chorva mollari, asosiy ishlab chiqarish fondlari, tabiiy-iqlim omillari, neft mahsulotlari, mineral va organik o'g'itlar, aylanma vositalar, kredit va moliyaviy resurslar kiradi. Shuningdek, agroresurslar tarkibiga tovarga aylanishi mumkin bo'lgan agrar ilm-fan va texnika yutuqlari, soha olimlari tomonidan yaratilgan intellektual mulk obyektlari ham faol resurslar sifatida kiritilishi lozim.

Tuproq-iqlim sharoiti og'ir, yerlarning meliorativ holati yomon, ball boniteti past, sug'orish sharoiti qiyin bo'lgan hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan fermer xo'jaliklari uchun resurslar bilan ta'minlash va xizmat ko'rsatish borasida imtiyozlarni kengaytirish zarur.

Tabiiy sharoiti og'ir hududlarda joylashgan qishloq xo'jaligi subyektlarini resurslar bilan ta'minlash va xizmat ko'rsatish obyektlariga davlat tomonidan moliyaviy ko'mak berish tadbirlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Moddiy-texnik resurslar hamda xizmat ko'rsatish subyektlarini moliyaviy mustahkamlash orqali xizmatlar narxini pasaytirish tizimini takomillashtirishni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur.

Agroresurslar bozorida noan'anaviy xizmat turlarini kengaytirish orqali aholi bandligi darajasini oshirish, sohada ishlovchilarning daromadlarini ko'paytirish hamda qo'shimcha tarmoqlarni rivojlantirish orqali ilm-fan yutuqlaridan keng ko'lamda foydalanish mexanizmini yo'lga qo'yish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Киселева Е.Н., Власова О.В., Коннова Е.Б. Рынок продовольственных товаров: учебное пособие. [http://www.plam.ru/ucebnik/rynok_prodovolstvennyh_tovarov/p2.php](http://www.plam.ru/ucebник/rynok_prodovolstvennyh_tovarov/p2.php)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” ПФ-4947-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й.
3. Bonanno., Russo., Menapace., Market power and bargaining in agrifood markets: A review of emerging topics and tools. AGRIBUSINESS Том: 34 Выпуск: №1. 6 – 23 стр. www.webofscience.com.
4. Муаллифнинг тадқиқотлари асосида тузилган.
5. Трушин Э.Ф. Повешении экономической эффективности использования водных ресурсов на основе совершенствования хозяйственного механизма водопользования. Автореферат. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Т-1991. 19 стр.
6. Муаллифнинг тадқиқотлари асосида тузилган.
7. Ўзбекистон Республикаси миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида.
8. Atkhamovna, T. Y. (2024, December). TAX POLICY IN THE DEVELOPMENT OF BUSINESS ACTIVITY. In Russian-Uzbekistan Conference (pp. 170-173).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>